

**O‘ZBEKISTONDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK  
TADQIQOTLARNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-HUQUQIY  
JIHATLARI**

**Salayeva Lobar**

“Pedagogika va psixologiya” mutaxassisligi magistratura talabasi,  
Osiyo xalqaro universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda pedagogik va psixologik tadqiqotlarni rivojlantirishning ahamiyati, mazmuni va tashkiliy-huquqiy jihatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tadqiqot, pedagogika, psixologiya, pedagogik tadqiqotlar, psixologik tadqiqotlar, ta’lim, tarbiya.

Jahonda ta’lim sohasidagi innovatsion rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda ta’lim tizimini kompetensiyaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan. YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan barqaror rivojlanish maqsadlarida bolalarda mustaqil-ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan sifatli ta’lim xizmatlarini tashkil etish dolzarb vazifalar sifatida qayd etilgan. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida oila, tarbiya, muassasalar, ishlab chiqarish korxonasi va jamoat tashkilotlarida pedagogika va psixologiyadan foydalanish ta’lim va tarbiyaning shaxslararo ijobiy munosabatlar o‘rnatish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning garovidir. Ta’limdagi yangilanish “Davlat ta’lim standartlari”ni ishlab chiqishni amalga oshirmay, ta’lim jarayoni orqali o‘quvchining o‘z kelajagini yorqin tasavvur qila oladigan, bu borada o‘z taqdiri va shaxsiga ongli munosabatda

bo‘lib, turli faoliyatlarda o‘z-o‘zini rivojlantira oladigan erkin, faol va mustaqil shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Xalqaro tajribalar ta‘lim muassasalarida pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, erta yoshdan boshlab zamonaviy o‘qitish asoslarini joriy etish, ta‘lim xizmatlarini diversifikatsiyalash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyo miqyosida bolalarni psixofiziologik, intellektual, ijodiy va shaxsiy salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan kreativ texnologiyalarni rivojlantirish, ta‘lim muassasalarida shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion ta‘lim muhitini tashkil qilish hamda strategik boshqaruv tamoyillari asosida ta‘limning sifat menejmenti mexanizmlarini takomillashtirish, pedagogik va psixologik tadqiqotlarni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy masalalariga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda ta‘limni boshqarishning axborot-metodik tizimini takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv va muammoli-vaziyatli o‘qitish usullarini joriy etish, barcha ta‘lim tizimi xodimlarining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish va baholashning samarali shakl va metodlarini amaliyotga joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Umummanfaatlarni o‘zida mujassam etgan mazkur davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida mamlakatimizda uzluksiz ta‘lim tizimini rivojlantirishning izchilligi va uzviyligini ta‘minlash bilan bir qatorda ta‘lim muassasalari faoliyatini tashkil etish jarayonlariga ham ijodiy yondashuvni tatbiq etishdir. Bu borada bolalarni maktabga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish, ta‘lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida ta‘lim olishga zaruriy ehtiyoj va motivlarni shakllantirish, ta‘lim muassasalari tarbiyachilarining faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish hamda ularning faoliyati

samaradorligini oshirish, ta'lim muassasasida qulay ta'limiy muhitni shakllantirish, ya'ni innovatsion ta'lim muhitni vujudga keltirish zaruriyatini belgilaydi.

Bugungi kunda respublikamizda ta'lim sohasida me'yoriy-huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni quyi ta'lim muassasalari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha va maktab yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan konseptual islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish" kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada respublikada ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv shakllarini joriy etish, ta'lim tizimi xodimlarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda hsm belgilangan vazifalarni amalga oshirishda O'zbekistonda pedagogik va psixologik tadqiqotlarni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari sifatida xizmat qiladi. Mustaqil respublikamizning kelgusidagi rivoji, ravnaqi har tomonlama barkamol, o'ziga, boshqalarga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga to'g'ri munosabatni bildira oladigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, ijodkor va tadbirkor shaxsga bog'liqdir. O'quvchida ana shu xususiyatlarning

rivojlanishi soʻzsiz oʻqituvchiga, uning oʻquv - tarbiya jarayonini toʻgʻri boshqara olishiga bogʻliq. Bugungi kunda har bir fan oʻqituvchisi oʻquvchilarga “Davlat taʼlim standartlari”da belgilangan bilimlar meʼyorini oʻrgatish, “yaxshi fizik”, “yaxshi adabiyotchi”, “yaxshi tarixchi” boʻlish emas, balki oʻz fanini oʻqitish orqali oʻquvchi shaxsining yuqorida koʻrsatib oʻtilgan jihatlarini tarbiyalay oladigan - yaxshi oʻqituvchi boʻlishi lozim. Yaxshi oʻqituvchi boʻlish uchun esa oʻquv jarayonini yaxshi, toʻgʻri, odilona va oqilona boshqara olishi juda muhimdir.

Mamlakatimizdagi mavjud barcha oʻquv yurtlari taʼlim-tarbiyani toʻgʻri, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun bu jarayonning oʻziga xos psixologik qonuniyatlarini, pedagogik va psixologik tadqiqotlarni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari, uning mexanizmlarini, shuningdek, faol, mustaqil hamda ijodiy tafakkur jarayonini zamonaviy bilimlar asosida tarkib toptirishning samarali usullarini bilishi lozim boʻladi. Bu borada pedagogik va psixologik tadqiqotlar - hozirgi zamon pedagogik hamda psixologiya fanlarining rivojlangan sohalaridan boʻlib, bu jihatdan muhim oʻrin egallaydi, zero pedagogik va psixologik tadqiqotlar ishtirokchilarning ruhiy olamining tabiati va uning qonuniyatlarini oʻrganuvchi sohadir.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlarning rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari - pedagogik hamda psixologiya fanlarining birlashgan ilmiy tarmogi sifatida taʼlim va tarbiyaning shaxsga samarali taʼsir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini oʻrganuvchi tarmoqdir. Taʼlim-tarbiya muassasalaridagi faoliyat va hatti-harakatlarining psixologik qonuniyatlarini oʻrganuvchi pedagogik va psixologik tadqiqotlar psixologiya va pedagogika fanlarining tutashgan joyidan oʻrin egallagandir. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarning tashkiliy-huquqiy asoslari oʻquv muassasalarida bilim,

ko‘nikma va malakalarni egallash qonuniyatlarini, bu jarayonlarda sodir bo‘ladigan individual tafovutlarni, o‘quvchilarda faol, mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlarini tadqiq etishdir.

Shuningdek, pedagogik hamda psixologiya - ta‘lim-tarbiyaning ta‘siri oqibatida o‘quvchilar psixikasida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni, o‘quv materiallarining o‘quvchilarning yosh davrlariga mos kelishini, turli ta‘lim metodlarining psixologik jihatdan samaradorligini, darsliklarining tartibiga nisbatan bo‘lgan psixologik talablar kabi muammolarni ham o‘rganadi. Shuningdek, rivojlantirish asoslarini belgilab berishga hizmat qiladi. Hozirgi davrda pedagogik va psixologiyaning muhim vazifalaridan biri - o‘quv maskanidagi ta‘lim jarayonini yanada takomillashtirishning, uning tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, bu pedagogik va psixologik tadqiqotlar natijalriga tayangan holda yangi ta‘lim dasturiga o‘tish munosabati bilan bog‘liqdir.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlar shu bilan birga o‘quvchilar shaxsining tarkib topish jarayonini turli tarbiyaviy tadbirlarning o‘quvchilarga ko‘rsatadigan ta‘sirini o‘rganadi hamda o‘quvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalashning ilmiy asoslarini tadqiq etadi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, analitik obzor, kuzatish, ijtimoiy so‘rov, anketa, o‘rganish, umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik statistika metodlaridan foydalanish ta‘lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy talablar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan yangi o‘quv rejalari, dasturlari va o‘quv-metodik adabiyotlarni ishlab chiqish va amaliyotga kiritish hamda o‘z hayotiy qiziqishlari, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlari yo‘lida ham ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qodir bo‘lgan har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirish, psixologik mexanizmlarini aniqlash va pedagogik

sharhlash pedagogik va psixologik tadqiqotlar sohasining muhim jihatidir.

Tadqiqotning amaliy natijalari bizga shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tizimli yondashuv asosida takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati pedagogik va psixologik tadqiqotlarni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari sifatida xizmat qiladi va u pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

- ta'lim muassasalaridagi pedagogik va psixologik tadqiqotlar jarayonni takomillashtirish modeli ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat komponentlari (maqsadli-mazmunli, tashkiliy-metodik, nazorat-baholash) rivojlanish sohalari (intellektual-ijodiy, bilish, ijtimoiy-hissiy, kommunikativ va jismoniy) bilan o'zaro integratsiyalash hamda refleksiv uzviylikni ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

- ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining mustaqil faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari bolalarda rivojlanish sohalari bo'yicha tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning integrativ-variativ dasturlariga asoslangan zamonaviy guruhlar faoliyatidagi kreativlikka ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

- ta'lim muassasalari tarbiyachilarining kasbiy kompetentlik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari menejerlik, refleksivlik, kreativlik, innovatsion faoliyatga yo'nalganlik kabi indikatorlar tarkibini kiritish asosida takomillashtirilgan;

- ta'lim muassasalarining o'zini-o'zi tashkil etuvchi ochik tizim sifatidagi faoliyat mexanizmlari pedagogik jarayon samaradorligini baholashdagi korporativ-mustaqil sifat nazorati komponentini kiritish asosida takomillashtirilgan.

Xulosa shuki, O‘zbekistonda ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda tizimli yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari va pedagogik-psixologik imkoniyatlarini pedagogik va psixologik tadqiqotlarni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari ijtimoiy hayotga moslashish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shuningdek, ushbu qaror mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish hamda takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2002.
2. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Серия: Мастера психологии Издательство: Питер, 2002 г. Твердый переплет, 720 стр. ISBN 5-314-00016-4.
3. Turdiyeva M. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2008. - 15 b.